O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	Massajning bo'yin boylam apparati va mushak sistemasiga fiziologik ta'siri. Massajning yurak qon tomir va limfa tizimiga ta'siri. Massaj qilish orqali qon tomirlarning kengayishi, terida qon aylanishi va yog' hamda ter bezlari funksiyasining kuchayishi. Massajning nafas a'zolari tizimiga ta'siri Massajning ovqat hazm qilish a'zolariga ta'siri.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Massajning yurak qon tomir va limfa tizimiga ta'sirini. • Massaj qilish orqali qon tomirlarning kengayishi, terida qon aylanishi va yog' hamda ter bezlari funksiyasining kuchayishini. • Massajning nafas a'zolari tizimiga ta'siri Massajning ovqat hazm qilish a'zolariga ta'siri. • Massajning tanosil a'zolari va siydik ajratish a'zolari sistemasiga ta'siri.Massaj kursining davrlarga bo'linishi: boshlang'ich, asosiy, yakunlovchi. • Massaj muolajalarini takrorlash muddati va ular orasidagi tanaffuslar. • Sog'liqni Saqlash Vazirligining amaldagi xujjatlari.

--	--

2.2 Modul. Massajning gigienik asoslari.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Massajning inson a'zolariga davolovchi, faol usul sifatida ta'sir etishi. Bemorning umumiy holati hamda kayfiyatiga massajning ta'siri. Massaj xonasiga va jihozlariga muayyan talablar. Massajchining ish faoliyatini tashkil etish. Massaj muolajasini o'tkazish xonalari va ularning jihozlanishi. Massaj o'tkaziladigan xona va inventarlarga talab, massajchiga qo'yiladigan talab, ishlash rejimi, bemorga qo'yiladigan talablar, massaj qabul qilishga bo'lgan ko'rsatmalar va mone'liklar. Massajchining ish faoliyati, massaj hamshirasining vazifalari.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	Massaj o'tkaziladigan xona va inventarlarga talab, massajchiga qo'yiladigan talab, ishlash rejimi, bemorga qo'yiladigan talablar, massaj qabul qilishga bo'lgan ko'rsatmalar va mone'liklar. Massajchining ish faoliyati, massaj hamshirasining vazifalari.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Massaj usullarini qo'llash texnikasi. Massajning ish normasi va uning hisobotini. • Davolovchi massajni fizioterapevtik muolajalar va dori moddalarini birgalikda qo'llanilishini. • Segmentar-reflektor massaj, uning xususiyatlarini. • Turli xil kasalliklarda davolovchi massajning qo'llanilishi ularga bo'lgan ko'rsatma va qarshi ko'rsatmlarni.

2.3 Modul . Massaj usullarini bajarish texnikasi va metodikasi .

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	24 kredit
O'quv moduli	Massaj qilishda inson organizmini fiziologik va patologik holatini hisobga olgan holda massajni turi va usullari tanlashni

mazmuni:	o'rgatish. Silash usullarining fiziologik ta'siri. To'g'ri chiziqli silash. Ishqalash usullarining fiziologik ta'siri. Ishqalash usullarining turlari va bajarish texnikasi. Ezish usullari va ularning fiziologik ta'siri asosiy va yordamchi usullarini qo'llash.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	Uqalash usulining fiziologik ta'siri. Uqalash usulining turlari va bajarish texnikasi. Harakat mashqlarining fiziologik ta'siri va bajarish texnikasi. Tebrantirish usullarining turlari. Qoqish usullari. Tibbiy massajda zamonaviy apparatlardan foydalanish, afzalliklari va xususiyatlari. Zamonaviy massaj apparatlarini tuzilishini, ularda muolajalar o'tkazishni. Massaj muolajasini o'tkazishdan oldin unga nisbatan bo'lgan ko'rsatmalar va moneliklarni o'rgatish. Nuqtali massaj.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Nuqtali massaj. Biologik aktiv nuqtalarda terapevtik massaj. • Byuti- terapiyada apparat massaj usullarini. • Akupunktur massajni. • Akupunktur massajni qo'llashga bo'lgan ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni. • Apparatlar yordamida massaj algoritmini. • Nuga Best massaj krovati tuzilishi ko'rsatmalar va bajarish algoritmini. • Apparat massajining afzalliklari va xususiyatlarini.

2.4 Modul Davolovchi va noan'anaviy massaj usullari

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	24 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Davolovchi massaj usullarni to'g'ri qo'llash to'g'risida zamonaviy tushunchalar bilan tanishtirish. Kosmetik massaj, gigenik massaj, sport massaji sharq massaji nuqtali massaj o'tkazilish usulari va turlari. Bosh og'rig'ida massaj qilish. ko'rsatma qarshi ko'rsatmalari. Sensoterapiya massaji. Sensor tizimidagi muammolarni bartaraf etishda zamonaviy massaj usullari. Ko'rish, eshitish va boshqa sezgi a'zolari buzilishlarida massaj terapiyasi. O'pka va nafas yo'llari yallig'lanish kasalliklarida massaj turlari. Osteoxondrozda massaj usullari. Bel qismidagi osteoxondroz

	xastaligida massaj usullari.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	O'pka va nafas yo'llari yallig'lanish kasalliklarida massaj turlari. Osteoxondrozda massaj usullari. Bel qismidagi osteoxondroz xastaligida massaj usullari. Tayanch harakat tizimi patologiyasida massaj usullari. Kinezioterapiya. Neyrorelaks massaj, qo'llanilishi. Gipertermiya holatlarida akupunktura massaj usullarining qo'llanilishi. Muzli massaj usullari: sport va tibbiyotda qo'llanilishi. Su-joko terapiya.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Su-joko terapiya. • Aurikuloterapiya bajarish texnikasini. • Qariyalarda yoshiga qarab davolovchi massaj o'tkazishni o'ziga xosligi, qariyalar turli xil kasalliklarida davolovchi massaj usullarni to'g'ri tanlashni. • Refleksoterapiyaning asosiy turlari. Vakumli refleksoterapiya. Lazerli refleksoterapiya. Refleksoterapiya uchun ko'rsatmalar va moneliklarni. •

2.5 Modul. Sport massaji. Sport shikastlanishlarida va tayanch- harakat a'zolari kasalliklarida massaj usullari.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Sportchilarda musobaqadan oldin va musobaqadan keyingi massaj usullari. Sport massaji sportchilarning funksional holatini, sport formasini yaxshilash, jismoniy ish bajarish qobiliyatini oshirish, jarohat va tayanch-harakat apparati kasalliklarining oldini olish uchun qo'llash. Jismoniy va ruhiy hayajonli holatlarni oldini olish. Mehnat faoliyatini mukamallashtirish.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	Start oldi holati massaji. Relaksoterapiya massaji va ularning ta'siri. Musobaqadan keyingi charchash holatlarini bartaraf etish va tetiklikni tiklash. Tinchlantiruvchi massaj va ularning ta'siri.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Musobaqadan keyingi charchash holatlarini bartaraf etish va tetiklikni tiklashni. • Tinchlantiruvchi massaj va ularning ta'siri. Bajariladigan ish xarakteriga, sport turiga, sportchining ruhiy holatiga qarab tinchlantiruvchi va tetiklashtiruvchi massajni o'tkazishni. • Aktivlashtiruvchi massaj, uning ahamiyati. Sport sohasida qayta tiklovchi massaj turlari va yordamchi

	vositalarni. • Mialgiyada massaj uslubini
--	--

2.6 Modul Bolalarda individual rivojlanishiga yo`naltirilgan massaj usullari. Bolalar massajining kattalar massajidan asosiy farq va xususiyatlari

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Bolalar yoshiga qarab davolovchi massaj o'tkazishni uziga xosligi, bolalar turli xil kasalliklarida davolovchi massaj usullarni to'g'ri tanlash. Bolalar organizmining -fiziologik xususiyatlari. Ko'krak yoshidagi (1yoshgacha) sog'lom bolalarda massaj usullari va ularni bajarish qoidalari Har bir bola o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar bilan rivojlanib borishi. Bolaning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari: tana og'irligi, bo'yi, ko'krak va bosh aylanisini ahamiyati. Raxit kasalligini kelib chiqish sabablari, oldini olishda va davolashda massajning asosiy vosita sifatida qo'llanishi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	Bolaning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari: tana og'irligi, bo'yi, ko'krak va bosh aylanisini ahamiyati. Raxit kasalligini kelib chiqish sabablari, oldini olishda va davolashda massajning asosiy vosita sifatida qo'llanishi. Skoliozni bartaraf etishda reabilitatsion massaj texnologiyalari. Massajni o'tkazishdagi gigiyenik sharoitlar. Raxit kasalligini davolashda umumiy massajning ahamiyati.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	Yassi tovonlikda individual massaj usullarining samaradorligi. Mushaklari bo'shashgan bolalarni umumiy massaj qilish usullari. Bolalarda respirator kasalliklarda drenaj massaj usullari. Bolalarda qomatning o'zgarishi, sonning tug'ma chiqishi, tug'ma maymoqlik, tug'ma mushakli qiyshiq bo'yin va boshqa bolalar kasalliklarida erta tashxis qo'yishni bilish. Bolalar massajining kattalar massajidan asosiy farq va xususiyatlari.

2.7 Modul. Favqulotda vaziyatlar va hayot uchun xavfli xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish



O'quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulodda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatish:
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	O'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Jarohatlarda, suyak sinishida va Krash sindromida birinchi yordam ko'rsatish. Kuyishda birinchi yordam ko'rsatish. Elektr toki bilan shikastlanishda birinchi yordam ko'rsatish. O'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam ko'rsatish. Bo'g'ilishda birinchi yordam ko'rsatish. Cho'kishda birinchi yordam ko'rsatish. Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam ko'rsatish.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	Cho'kishda birinchi yordam ko'rsatishni. Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam ko'rsatishni. • Hasharotlar chaqishi va hayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatishni • Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullarini. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (SAB) va uni bajarish algortmini.
Adabiyotlar:	1. D. Turaqulov, L. X. Musajonova. "Shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatishda xamshiralik ishi" O'quv qo'llanma. A. Navoi nashriyot. 2019 yil. 2. Y. Allayorov Y. Tojiboev "Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari." 2017 y. Toshkent. 3. Elektron ta'lim resurslari: 1. Free online First Aid, CPR & AED kurslari • FirstAidForFree.com — asosiy birinchi yordam, CPR (CPR), AED (avtomatik tashqi defibrilliyator) va boshqa ko'plab mavzularni o'z ichiga olgan bepul onlayn kurslar. 2. First Aid Online Classes — American Red Cross • American Red Cross (Amerika Qizil Xoch) tomonidan taklif etilgan onlayn birinchi yordam kurslari. Interaktiv modul orqali CPR, yaralanishlarni boshqarish va boshqa

	birinchi yordam ko'nikmalari. 2. CPR, AED va First Aid kursi — Alison Free Course: CPR, AED and First Aid Alison platformasidagi bepul kurs. Bu kursda CPR, AED ishlatish va favqulodda vaziyatlarda tez yordam asoslarini mustaqil o'rganish mumkin.
--	---

3.2.2 Simulyatsion kurs (tibbiy trening) mazmuni

№	Bajariladi gan ishlar mazmuni	Eskizlar, chizmalar rasmlar,	Kerakli bo'lgan jixozlar.	Bajarilish tartibi
1	Qo'llarni yuvish	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085  	suyuk sovun, bir martalik qog'oz salfetka.	Ho'llash va sovunlash: Qo'llarni toza suv bilan ho'llang va yetarli miqdorda sovun surting. Kaftlarni ishqalash: Kaftlarni bir-biriga qaratib, aylanma harakatlar bilan ishqalang. Barmoqlar orasini tozalash: O'ng kaftni chap qo'l orqasiga qo'yib, barmoqlarni bir-birining orasiga kimgazing va ishqalang. So'ngra qo'llarni almashtiring. Barmoqlarni qulflash: Barmoqlarni bir-biriga ilashtirib (qulflab), barmoqlar orqa yuzasini qarama-qarshi kaft bilan ishqalang. Bosh barmoqlarni yuvish: Chap qo'l bosh barmog'ini o'ng kaft bilan qisib ushlab, aylanma harakatlar bilan tozalang. Keyin

				o'ng bosh barmoqni ham shunday yuving. Tirnoqlar va barmoq uchlari: O'ng qo'l barmoq uchlarini chap kaftga qo'yib, aylanma harakatlar bilan ishqalang. Bu tirnoq ostidagi mikroblarni ketkazadi. Keyin qo'llarni almashtiring.
2.	Radial pulsni aniqlash. Bemorni qulay xolatda o'tkazish yoki yotqizish.	 	Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka. Sekundomer, harorat varaqasi, ruchka. Qizil ruchka.	Radial pulsni aniqlash. 1.Qo'llar yuviladi va quritiladi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi 3.Bemor qulay xolatda o'tkaziladi yoki yotqiziladi. 4.Bemorning qo'li bo'sh egilgan holatda bo'lishi kerak. 5.Radial pulsni aniqlashda tekshiruvchi bilakning ichki yuzasi, 1/3 pastki qismi, 1 – barmoq asosi bo'ylab bilak arteriyasi tomini shunday ushlashi kerakki II, III, IV barmoqlari tomir ustida bo'lishi kerak. 6.Pulsni tekshirayotgan vaqtda tekshiruvchi IV barmog'i bemorning I - barmog'i ro'parasida bo'lishi kerak. 7.Pulsasiya qilayotgan arteriyani uchchala barmoq bilan paypaslab, asta bilak suyagining ichki tomoniga bosiladi 8. Pulsni aniqlayotganda uni maromiga,



to'liqligiga
 ESLATMA: ahamiyat
 beriladi. 9. Bilak
 arteriyasida pulsni
 sanash mumkin
 bo'lmaganda uyqu va
 chakka sanaladi. 10.
 sohalarida Natijasi
 harorat varaqasiga qizil
 ruchka belgilanadi.
 ESLATMA: 1. Puls
 urishini bun dan
 tashqari quyi dagi
 sohalarida aniqlash
 mumkin: a) Karotid
 puls – uyqu
 arteriyasida, ya'ni
 kekirdakning yon
 tomonidagi anatomik
 chuqurchada aniqlanib,
 kattalarda o'pka –
 yurak reani matsiyasini
 o'tkaz ganda
 foydalaniladi. b)
 Braxial puls - elka
 arteriyasida, ya'ni
 tirsak chuqurchasi
 markazining kichik
 barmoq aniqlanadi,
 tomonida asosan
 arterial qon bosimini
 o'lchashda foydalani
 ladi. v) Femoral puls –
 son arteriyasida, ya'ni
 tos suyagining yuqori
 oldingi qismi va chov
 birlashmasi o'rtasida
 aniqlanadi, asosan
 oyoqlarning qon bilan
 ta'minlanishi yoki
 o'pka – yurak
 reanimasiyasi
 o'tkazilganda ko'krak
 qafasining
 kompressiyalarini

				baholashda foydalaniladi. g) Pedal puls – oyoq kaftining dorzal yuzasida va to‘piqning ichki (medial) o‘simtasini orqa pastroq qismida aniqlanadi, asosan oyoqlarning qon bilan ta‘minlanishini baholashda foydalaniladi d) Apikal puls – yurak cho‘qqisi turtkisida, ya‘ni chap o‘mrov o‘rta chizig‘i bo‘ylab, 4 – 5 qovurg‘alararo sohada stetoskop yordamida eshitiladi. e) Apikal va radial pulsni aniqlash orqali puls defisitini (tanqisligi) aniqlash:
3	Arterial bosim (a.b.)ni o‘lchash.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION   	Tonometr, fonendoskop	Arterial bosim (a.b.)ni o‘lchash. 1. Qo‘llar yuviladi va quritiladi. 2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi 3. Arterial bosimni o‘lchash uchun bemor qulay o‘tkaziladi yoki yotqiziladi. Bemorning o‘ng yoki chap bilagini yelkasigacha yalang‘ochlanadi. 5. Bemor qo‘li krovat ga yoki stulga kafti bilan yuqoriga qaratib qo‘yiladi 6. Tonometr vintelinii burab manjetini havo si chiqariladi. 7. Bemorni tirsagidan 2-3 sm yuqoriga



manjetni 2
barmaq
sig'adigan
qilib

o'rab olinadi.

8. Bemorning tirsak
bo'g'imida yelka arte
riyasi tomir urishini
2,3,4 barmoqlar yorda
mida topiladi.

9. Tomir urgan joyga
fonendoskop membra
nasini

qo'yiladi, eshituv
nayi quloqqa ulanadi.

10. Vintelni berkitib
rezina

ballon yordamida
manjetkaga havo
yuboriladi.

11. Vintelni ochib,
havo asta-
sekin chiqariladi.

12. Havo
chiqish vaqtida
fonendoskopda
tomir urishi
eshitiladi. Bu

sistolik

bosim

ko'rsatgichidir.

13. Havo chiqishi
davomida tovushlar
eshitilmay qoladi. Bu
diastolik


bosim

ko'rsatgichini
bildiradi.

14. Tovushlarnin
g eshitilgan
va

eshitilmagan
joylardagi

natijani
monometrdan

			yoziib olinadi. 15. Vintelni to‘liq ochib, manjetkani ichidagi xavo to‘liq chiqariladi. 16. Manjetka bemor bilagidan olinadi. 17. Natija xarorat varaqasiga belgilanadi. ESLATMA: Normada sistolik bosim kattalarda 100-130 mm.simob ustuniga, diastolik bosim 60-90mm. simob ustuniga teng bo‘ladi.
4	Nafas olish sonini sanash	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085  	Sekundomer-1 ta, lotok – 1ta, gemodi namika varaqlari-1 ta suyuq sovun -1 ml, qog‘oz sochiq-20sm, steril qo‘lqop -1 juft,70% li etil spirti – 5 ml, paxta sharcha-10 gr, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi -500 ml 1. Qo‘llar yuviladi va quritiladi. 2.Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi. 3.Muolaja mohiyati va ketma-ketligi tushuntiriladi. Bemordan muolajaga roziligi olinadi. 5.Kerakli jihozlar tay yorlanadi. 6.Hamshira qo‘llari yuviladi va quritiladi. 7.Nafasni sanash uchun bemor karovatga o‘tirgan yoki yotgan bo‘lishi kerak. Bemor oldida joylashib o‘tiriladi va bemorni chalg‘itish uchun uning qo‘lini pulsni aniqlash maqsadida ushlagandek ushlanadi. 9.Hamshira qo‘lini

				bemorning bilagidan ushlab, agar ko'krak tipidagi nafasni aniqlash kerak bo'lsa bemorning ko'krak sohasiga, qorin tipini aniqlashda epigastral sohasiga pulsni aniqlash maqsadida qo'ygandek qo'yadi. 10.Nafas olish sekundomerdan foydalangan holda sanaladi. 11.Nafas olish sanalganda uning maromini, sonini, chuqurligini va tipini baholanadi. 12.Nafas harakatlari 1 daqiqa davomida sanaladi.
5	Hushdan ketganda birinchi yordam ko'rsatish.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION   	Yostiq yoki katlanadigan adyol ,Nam sochiq yoki salqin suv, Nashatir spirti (ammiak) ,Paxta ,Bir martalik qo'lgoplar ,Qaychi yoki tugmani ochish uchun vosita ,O'ralgan qulay mato (matrascha yoki polietilen) , Zaruratda yonboshlatish uchun orqa	1. Avvalo xavfsizlikni ta'minlang: O'zingiz va jabrlanuvchi uchun xavfsiz joyda ekaningizga ishonch hosil qiling (masalan, yo'l o'rtasida bo'lsa, uni chetga olib chiqing 2.BIRINCHI YORDAM QADAMLARI: Jabrlanuvchini tekshiring Odamga ohang bilan murojaat qiling : "Yaxshimisiz?", "Meni

		 Побрызгать лицо холодной водой, дать понюхать ватку с нашатырным спиртом 1 Приподнимает ноги для улучшения притока крови к сердцу. Восстанавливает силы и готовится сменить уставшего участника. Координирует действия. 2 Проводит непрямой массаж сердца. Отдает команду «Вдох!» после каждого пятого надавливания (в момент вдоха следует сделать паузу на 3-4 секунды). Контролирует эффективность вдоха ИВЛ. 3 Проводит вдох ИВЛ. Контролирует реакцию зрачков и пульс на сонной артерии.  	yostiqlik (kichik) , Ogʻir holatlar uchun telefon yoki aloqa vositasi eshityapsizmi?" Javob bermasa, yengil silkitib koʻring. 3. Burun tagiga paxtaga shimdirilgan nashatir spirti tutqazish mumkin – bu odamning oʻziga kelishiga yordam beradi. Ammo nashatirli paxtani burunga tiqmaslik, uni ichkariga quyib yubormaslik va hushsiz holatda odamni ichimlik bilan sugʻormaslik kerak – bu xatoliklar odamga zarar yetkazishi mumkin. 4. Nafas olishni va yurak urishini tekshiring. Nafas chiqishini ogʻiz yoki burundan eshiting yuzingiz bilan sezishga harakat qiling. 5. Koʻkrakning koʻtarilishini kuzating. Nafas va urishni aniqlash 10 soniyadan oshmasligi kerak. 6. Agar nafas olmasa yoki yurak urishi toʻxtagan boʻlsa: Zudlik bilan tez yordam chaqiring (103). Yurak urishini sunʼiy yoʻl bilan tiklash (KPR) boshlang: Koʻkrakning markaziga ikki qoʻlni
--	--	---	---

				qo'yib, har bir bosish 5–6 sm chuqurlikda va daqiqasiga ~100–120 marta bo'lishi kerak. 7. Agar nafas olayotgan bo'lsa, ammo hushsiz bo'lsa: Uni yonbosh holatga o'tkazing (stabil yon holat): Nafas yo'llari ochiq bo'lishi uchun tilni orqaga tushib qolishining oldini oladi. Nafasini va holatini doimiy kuzatib boring. Kiyimlarini bo'shating Yoqa, belbog', sutyen yoki boshqa qisuvchi kiyimlarni yeching.
6	Antropometriya o'tkazish	Ulchov tasmasi 	santimetrli o'lchov tasmasi; ruchka; suyuq sovun	Mijozdan issiq yoki qalin kiyimlarini yechishini iltimos qiling; O'lchashni yupqa kiyim ustidan amalga oshiring; Mijozdan o'lchash tasmasini gavda atrofidan (pastki qovurg'a va tos suyagining yuqori nuqtasi orasida joylashgan markaziy nuqtada) o'tkazishni iltimos qiling; O'lchash tasmasi bir xil sathda turganligiga ishonch hosil qiling; Mijozdan gavdasining og'irligini bir tekisda taqsimlagan holda, oyoqlarini birga

				qo'yishini iltimos qiling; Qo'llarini bo'shashgan holatda tutishi; Me'yoriy nafas olib so'ngra nafas chiqarishini iltimos qiling; Bel aylanasi uzunligini o'lchang; O'lchash tasmasi qattiq siqmagan holda, teriga yopishib turishi lozim (rasmlarga qarang). Mijozdan santimetrli tasmani qaytarab oling; Qo'llarni sovun bilan yuving. Me'yorida bel aylanasi erkaklarda 100 sm , ayollarda 90 sm bo'lishi kerak
7	Tana haroratini o'lchash.		tibbiy termometr, sochiq, harorat daftari, zararsizlantiruvchi eritma solingan idish (1% li xloramin eritmasi)	Qo'l yuviladi va quritiladi. Bemorga muolaja haqida ma'lumot beriladi. Bemor qulay vaziyatda yotqiziladi. Termometr olinadi va simob ustuni silkitib tushiriladi. Termometr qo'yiladigan soha ko'zdan kechiriladi va sochiq bilan quruq qilib artiladi. Termometr teri burmasiga qo'yiladi. Bunda termometrdagi simob rezervuari badanga tegib turishi kerak. 10 daqiqadan so'ng

				termometr olinadi. Termometrdagi ko'rsatgich aniqlanadi. Termometr ko'rsatgichi harorat daftoriga qayt qilinadi. Termometr simob ustuni pastga tushguncha silkitiladi. Termometr zararsizlantiriladi. Harorat varaqasiga qayd qilinadi. Termometrni zararsizlantirish: termometr zararsizlantiruvchi eritmalaridan biriga solib qo'yiladi (2% li xloramin eritmasiga 30 daqiqaga, 3% perikis vodorodli eritmasiga 80 daqiqaga, 0,5% li dizoksan eritmasiga 20 daqiqaga) oqar suvda chayiladi va quruq qilib artiladi. Termometr quruq joyda, tagiga paxta solingan idishda saqlanadi.
--	--	--	--	--

8	Kollaps , Shokda birinchi yordam.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085    	Yostiq yoki katlanadigan adyol ,Nam sochiq yoki salqin suv, Nashatir spirti (ammiak) ,Paxta , bir martalik qo‘lqoplar ,Qaychi yoki tugmani ochish uchun vosita ,O‘ralgan qulay mato (matrascha yoki polietilen) , Zaruratda yonboshlatis h uchun orqa yostiq (kichik) , Og‘ir holatlar uchun telefon yoki aloqa vositasi	1. Holatni baholash va yordam chaqirish Jabrlanuvchining holatini tezda baholang: hushida yoki yo‘qmi, nafas olyaptimi. Tez yordam 103 chaqiring. 2. Jabrlanuvchini yotqizing, iloji bo‘lsa beliga orqa bilan, tekis joyga. Oyoqlarini biroz ko‘tarib qo‘ying – bu miya va yurakka qon oqimini yaxshilaydi. 3. Agar voqea yopiq joyda bo‘lsa, derazani oching, shamollatish yarating. Kiyimlarning yoqasini, belbog‘ini, tugmalarini yeching, siqib turgan qismlarni bo‘shating. 4. Boshni yon tomon ga buriring, bu tilning orqaga tushib nafas yo‘llarini to‘sis qo‘y masligi uchun zarur. Agar qayt qilish ehtimoli bo‘lsa, yonbosh yotqizing. 5. Terisi sovuq, oqarib ketgan bo‘lsa – tanani iliqalashtirish choralari rini ko‘ring. Sovuq ter chiqishi – bu qon aylanishining buzilganidan darak
---	--	--	---	---

			beradi. Nashatir spirtiga shimdirilgan paxtani burun tagiga olib boring (1–2 soniyaga). Agar nashatir bo‘lmasa, odekolon bilan artish mumkin. 7. Og‘ir holatlarda nafas va yurakni tekshirish Nafas yoki yurak urishi yo‘q bo‘lsa: Sun‘iy nafas (masalan, “og‘izdan og‘izga”) Yurakni bilvosita massaji (ko‘krakni 100–120 marta daqiqasiga bosish) 8. Agar bemor hushiga kelsa: Sokin yotishini ta‘minlang. Suyuqlik bering (masalan, iliq shirin choy), agar qusmayotgan bo‘lsa Avval ichib yurgan dori vositalarini o‘zi istasa, faqat o‘zi qabul qilgan dorilarni bering
--	--	---	--

9	Yurakni bilvosita massaj qilish texnikasi.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085      	Sun'iy nafas berish uchun niqob yoki plyonka, avtomatlashtirilgan tashqi defibrillyator, gigiyenik qo'lqoplar, se kundomer, yassi va qattiq sirt, antiseptik vositalar.	1. Bemor holatini tayyorlash: Bemor qattiq va tekis sirt ustiga yotqiziladi. Ko'krak va qorin qismini siqib turgan kiyimlardan butunlay ozod qilinadi. 2. Qutqaruvchi bemorning chap tomonida joylashadi. Chap qo'l kafti ko'krak suyagining pastki uchdan bir qismiga, ya'ni hanjarsimono'simtada n 2–3 smyuqoriga vertika l holatda qo'yiladi. 3 Qo'llarning joylashuvi: O'ng qo'l chap qo'lning ustiga qo'yiladi. Bunda bilaklar tekis, kaftlar yumshoq bukilgan, barmoqlar esa na chap kaftga, na bemorning ko'kragiga tegmasligi kerak. 4. Ikkala qo'l to'g'ri va bukilmagan holatda bo'lishi kerak. Qutqaruvchi o'z vaznidan foydalangan holda ko'krak suyagini umurtqa tomon 4–5 sm bosadi. Har bir bosish taxminan 0.5 soniya davom etadi, urishsiz, tiniq ritmda bajariladi. Tezlik: daqiqasiga 60–
---	--	---	--	---



80 marta.

5. Yurak massaji + sun'iy nafas:

Yurak massaji sun'iy nafas bilan birga olib boriladi.

Qutqaruvchilar sonidan qat'i nazar, nafas va bosish nisbati 2:15 bo'lishi kerak (2 marta nafas, 15 marta ko'krak bosilishi)

6 Yurak massajining samaradorlik belgilari:

a) Massaj vaqtida bo'yin

arteriyasida puls sezilishi

Ko'z qorachig'ining torayishi, yorug'likka reaksiya paydo bo'lishi

c) Teri rangi pushti rangga kirishi

d) O'z-o'zidan nafas olish va hushning tiklanishi

10	O'pka sun'iy ventilyatsiyasini o'tkazish	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085    	4 qavat qilib buklangan steril salfetaklar, og'iz-halqum naychasi (havo yo'li), AMBU qopchasi bilan birga yuz niqobi.	1. Nafas yo'llarini ochish: Bemorni qattiq va tekis yuzaga yotqiziladi, boshi yon tomonga buriladi. Ko'rsatkich barmoq steril salfетка yoki ro'molcha bilan o'ralgan holda, bemorning og'zi va halqumi begona narsalardan tozalanadi. 2."Og'izdan og'izga" usulida sun'iy nafas berish:Yordam ko'rsa tutuvchi bemor yoniga joylashadi.Bir qo'l ostidan bemor ning bo'ynini ushlab, ikkinchi qo'l bilan pesho nasini bosadi va boshini maksimal orqa ga egadi. Ikki barmoq bilan burunni bekitadi, ikkinchi qo'li bilan og'izni biroz ochadi. Og'iz orqali mahkam yopib , kuchli va tez nafas (0.8–1.0litr) yuboradi.Bemor passiv ravishda nafas chiqaradi Sanitar-gigiyena uchun nafas berishda steril salfетка yoki bintdan foydalaniladi, ammo qalinmato qo'llanilmaydi. Kattalarda nafas chastotasi: daqiqasiga 14–16 marta. To'g'ri bajarilayotganini ko'krak qafasi ning harakati bilan
----	--	--	--	--



aniqlanadi: nafas olayotganda ko'tarilishi, chiqarayotganda tushishi.

3 Og'izdan burunga" usulida sun'iy nafas berish: Pastki jag' shikastlanganda yoki og'iz ochilmasa qo'llaniladi. Bosh orqaga egiladi, bir qo'l peshonada, ikkinchisi bilan pastki jag' yuqo riga ko'tariladi va og'iz yopiladi. Burun ni lablari bilan qamrab, nafas yuboriladi.

4. AMBU moslamasi bilan sun'iy nafas: Niqob bemorning yuziga qo'yiladi, og'iz va burunni to'liq yopadi.

Niqobning yuqori (burun qismi) qismi bosh barmoq bilan,


pastki qismi esa III, IV va V barmoqlar yordamida jag'ni yuqoriga ko'tarib mahkamlanadi.

II barmoq niqobning pastki qismini mahkam ushlab turadi. Bosh orqaga egilgan holatda bo'lishi lozim. Bo'sh qo'l bilan Ambu xaltachasi ritmik tarzda siqiladi — nafas yuboriladi.

Nafas chiqishi maxsus klapan orqali




				atmosferaga chiqadi 5. Sun'iy nafas yurak massaji bilan birga qo'llanganda: Tavsiya etilgan nisbat: 2 ta sun'iy nafas : 15 ta yurak siqilishi (2:15). Sun'iy nafas berish vaqtida yurak massaji to'xtatiladi, ammo bu tanaffus 3 soniyadan oshmasligi lozim
11	Pulsoksimetr		pulsoksimetr, ruchka, stul yoki kushetka (mijoz uchun).	Tibbiyot xodim quyidagi qadamlarni bajarishi lozim: Qo'llarni sovun bilan yuving; Pulsoksimetriyani o'tkazishdan oldin tekshirilayotgan barmoqning terisi toza ekanligiga va tirnoq ustida lak yo'qligiga ishonch hosil qiling; Pulsoksimetrni yoqing; Pulsoksimetrni mijozning barmog'iga qo'ying; Bir necha soniya kuting; Pulsoksimetr aniq signalini olganida, ekranda yurak urushi va saturatsiya aks etadi;

12	Oshqozonni yuvish ketma ketligi.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION  VectorStock VectorStock.com/6372085    Оборудование для экстренного промывания желудка довольно простое, однако необходимо помнить, что трубка, введенная в желудок, должна быть стерильной.	Steril, yo'gon me'da zondi, voronka, 1 chelak yuvish uchun eritma (4,2% li natriy gidrokarbonat eritmasi, suv), 1 litrli ko'zacha, klyonkali fartuk, klyonka, suv solish uchun tog'ora, sochiq, "Janye" shpritsi, qo'lqop.	1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi; 2. Qo'l yuviladi va quritiladi; 3. Fartuk va qo'lqop kiyiladi; 4. Bemordan ko'ylak tugmachalarini yechish so'raladi; 5. Bemor to'g'ri o'tqaziladi: stulga suyangan holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o'tqaziladi; 6. Bemorning bo'yin va ko'kragiga klyonka fartuk tutiladi; 7. Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O'ng qo'l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oraliqda ushlanadi, chap qo'l bilan ikkinchi uchi ushlanadi; 8. Me'daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi; 9. Bemordan og'iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so'raladi. Zondningyopiq uchi til ustiga qo'yiladi; 10. Bemordan yutinishi so'raladi. Har bir yutinganda zond asta-sekin
----	----------------------------------	---	---	--



yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi;
 11.Zondning ikkinchi uchiga voronka kiygiziladi;
 12.Oʻrnatilgan voronka bemorning tizzasigacha tushuriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan toʻldiriladi;
 13.Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan koʻtariladi.
 14.Voronka yana asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik togʻoraga tushuriladi;
 15.Muolaja meʼdadan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi;
 16.Salfetka bilan zond uchi oʻraladi;
 17.Asta-sekinlik bilan zond meʼdadan chiqariladi va salfetka bilan artiladi;
 18.Bemor oldidan klyonka olinadi va ishlatilgan asboblarni zararsizlantiriladi;
 Qoʻlqop va fartuk yechiladi va zararsizlantiriladi;
 20.Meʼda yuvilgandan soʻng bemor ahvoli kuzatiladi.

13.	Sifonli huqna o'tkazish ketma ketligi.	HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION    	Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, vazelin, bir martalik qo'lgop, kleyonka fartuk. Steril yo'g'on naycha, lotok, kleyonka, katta taglik, shpatel. Hajmi 1 litrli voronka, 10-12 litr qaynatilgan, harorati 37C li suv solingan idish, 1litr hajmdagi krujka. Voronka, yuvindi suvlar uchun idish. 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi	1 .Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi; . Qo'l yuviladi va quritiladi; . Fartuk va qo'lgop kiyiladi; . Bemordan ko'ylak tugmachalarini yechish so'raladi; . Bemor to'g'ri o'tqaziladi: stulga suyangan holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o'tqaziladi; 6.Bemorning bo'yin va ko'kragiga klyonka fartuk tutiladi; 7.Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O'ng qo'l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oraliqda ushlanadi, chap qo'l bilan ikkinchi uchi ushlanadi; . Me'daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi; . Bemordan og'iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so'raladi. Zondning yopiq uchi til ustiga qo'yiladi; 10.Bemordan yutinishi so'raladi. Har bir yutinganda zond asta-sekin yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi;
-----	--	---	--	--

		   	11. Zondning ikkinchi uchiga voronka kiygiziladi; . O'rnatilgan voronka bemor tizzasigatushuriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan to'ldiriladi; . Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan ko'tariladi. . Voronka asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik tog'oraga tushuriladi; . Muolaja me'dadan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi; 16. Salfetka bilan zond uchi o'raladi; . Asta-sekinlik bilan zond me'dadan chiqariladi va salfetka bilan artiladi; . Bemor oldidan klyonka olinadi va asboblarni zararsizlantiriladi; . Qo'lqop va fartuk yechiladi va zararsizlantiriladi; 20. Me'da yuvilgandan so'ng bemor ahvoli kuzatiladi.
--	--	--	---

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O‘quv bazalari: Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali Buvasa’din ko‘chasi, 18-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.
Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

4.2. Mashgulotlarni o‘tkazish uchun zarur jixozlar ro‘yxati:

Modul bo‘yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o‘tiladigan o‘quv auditoriyalari

Multimediali jamlanma: slaydlar to‘plami bo‘lgan ppt ko‘rinishli ma‘ruzalar SD diskda ko‘rgazma materiallar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliy kunikmalarni mustaxkamlash treningukuv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriy ko‘rgazma va qo‘llanmalar,

Ryeabilitatsiya o‘tkazish uchun zamonaviy tibbiy apparaturalar.

4.3. Adabiyotlar ro‘yxati:

4.3.1. Qonunchilik va me‘yoriy-xuquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2018 yil PQ 4063-sonli “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab –quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabr PF 4887-sonli “Aholining sog‘lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” farmoni

5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i.

6. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me‘yoriy hujjatlari.

4.3.2 Asosiy adabiyotlar.

1. Z.A. Alimova “Davolovchi masaj asoslari” darslik Toshkent 2005

2. A. Axmedov, X. Rasulov “Odam anatomiyasi, Bolalar anatomiyasi asoslari” darslik Toshkent 2019 yil

3. A. Gadayev, O. Masharipov Odam anatomiyasi” darslik Toshkent 2023 yil

Elektron adabiyotlar

Q.A. Nurmuxamedov “Reabilatsiya, massaj va mexnat bilan davolash” Toshkent 2015y

4.3.3 Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Nurmuxamedov Q.A. Massaj: darslik, Toshkent 2014 y.

2. Usmanxodjayeva A.A., Adilov Sh.K., Axmedova D.Sh. “Shifokor nazorati” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy tavsiyalar, Toshkent, 2017 y. – 110 b.
3. Vasilyev V.D., A.A. Usmanxodjayeva “Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullauvchilarning tizimli mashg‘ulotlar tas‘iri natijasida inson organizmdagi funksional (nafas, yurak qon tomir va vegetativ nerv tizimlari) holatini baholash” Toshkent. 2012 y. o‘quv uslubiy qo‘llanma – 32 b.
4. Usmanxodjayeva A.A., Adilov Sh.K va boshkalar. “Reabilitologiya va sport tibbiyoti” darslik. Toshkent, “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. – 344 b.
5. Avdeyeva T.G. Vvedeniye v detskuyu sportivnuyu meditsinu. Moskva: GEOTAR-Media, 2009. – 176.
6. Dubrovskiy V.A. Sportivnaya meditsina: Ucheb. dlya stud. vyssh. uchebn. zavedeniy. – M.: Gumanit. izd. syentr VLADOS 2002. – 512s.
7. Yepifanov V.A. Lechebnaya fizkultura i sportivnaya meditsina. M. 2000 g.
8. Makarova G.A. Sportivnaya meditsina: Uchebnik. – M.: Sovetskiy sport, 2003. – 480
9. Mirzoyev O.M. Vosstanovitelnyye sredstva v sisteme podgotovki sportsmenov. M.: Fizkultura i sport, SportAkademPress, 2005. – 211s.
10. Yu. Gaziyeva. Sport tibbiyoti uslubiy qo‘llanma Toshkent 2012y
11. Pavlanova G.I. “Fizioterapiya va massaj” fanidan o‘qitish materiallar to‘plami Toshkent 2022
12. C.A. Mamurov, D.B. Yusupova. “Fizioterapiya va massaj” 2022y

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Krasikova I. S. Detskiy massaj. Massaj i gimnastika dlya detey ot rojdeniya do trex let. — 2-ye izd., ispr. i dop. — SPb.: KORONA print, 2000g.
2. Panayev M. S. Osnovy massaja i reabilitatsii v pediatrii/ «Meditsina dlya vas». - Rostov n/D: «Feniks», 2007. - 320 s.
3. Biryukov A.A. Lechebnyy massaj. Moskva: «Akademiya», 2007g..
4. Bogolyubov V.M. Kurortologiya i fizioterapiya. M.: Meditsina, 2018g.
5. Lechebnaya fizicheskaya kultura pri zabolevaniyax organov dyxaniya / Achkasov Ye.Ye., Talambum Ye.A., Xorolskaya A.B., Runenko S.D., Sultanova O.A., Krasavina T.V., Mandrik L.V. M.: Triada – X, 2011g

4.3.4. Elektron ta’lim resurslari

www.medi.ru,
www.medlinks.ru,
www.medscape.com,
www.medland.ru,
www.med-lib.ru,
www.ksmed.ru/pat/gynecology,

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5. Oraliq nazorat

Oraliq nazorat – sikl davomida o‘quv dasturining (bir necha mavzularni o‘z ichiga olgan) moduli tugallangandan keyin tinglovchilarining bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli. Oraliq nazorat test, suxbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish, amaliy ko‘nikmalarni baxolash yoki ularni kombinatsiyalangan shakllarida o‘tkaziladi, aniq ishlab chiqilgan baholash mezonlari bo‘yicha baxolanadi va natijalari gurux jurnalida qayd etiladi.

Andijon filialida malaka oshirish kurslaridagi oraliq nazoratlar bir marotaba og‘zaki so‘rov shaklida o‘tilgan mavzular asosida nazariy amaliy savollarni o‘z ichiga olgan xolda 5 ta savoldan iborat biletlar yordamida amalga oshiriladi. Har bir to‘g‘ri javobga maksimal 20 balldan (%) beriladi, o‘tish balli 60 ball (%) .Oraliq nazoratdan o‘tgan tinglovchilar nazoratning keyingi bosqichi Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladi.

Oraliq nazorat savollari

1- Bilet.

- 1.Massaj o‘tkaziladigan joy(xona) qanday bo‘lishi kerak?
- 2.Silash usullari qanday bosim bilan o‘tkaziladi?
- 3.Ritmik sport massajni trenirovka o'mida o'tkazishganligini bilasizmi?
- 4 Massaj xonasini yorug‘liklari va dam olish xonalari haqida nimalar bilasiz?
5. Silashda kaftning qaysi sohalari ishtirik etadi?

2-Bilet.

1. Massaj xonasini yorug‘liklari va dam olish xonalari haqida nimalar bilasiz?
2. Silashda kaftning qaysi sohalari ishtirik etadi?
3. Olimpiya o'yinlarida ilk bor sport massaji qayerda qo'llangan?
4. Massajga tavsiya yoki ma'n etilish holatlarini bilasizmi ?
5. Silash usulining fiziologik ta'sirini bilasizmi?

3-Bilet.

- 1 Tayyorlovchi massaj qanday holatlarda o'tkaziladi?
- 2.Massajga tavsiya yoki ma'n etilish holatlarini bilasizmi ?
3. Massaj muolajasini bajarish jarayonida massaj olish uchun qulay holatni bilasizmi?
4. Massajchining charchash sabablarini bilasizmi?
5. Silash usullari ten, qon va limfaga qanday ta'sir etadi?

4-Bilet.

- 1.Silash usullari teriga qanday ta'sir etadi?
2. Silash nerv tizimiga qanday ta'sir etadi?
- 3.Silash usullari ten, qon va limfaga qanday ta'sir etadi?
4. Sport massajini turlarini bilasizmi?
- 5.Tayyorlovchi massaj qanday holatlarda o'tkaziladi?
- 6.Start oldi turlarini bilasizmi?

5-Bilet.

1. Silash nerv tizimiga qanday ta'sir etadi?
2. Silash usullari ten, qon va limfaga qanday ta'sir etadi?
3. Silashni ichki a'zolariga ta'sirini bilasizmi?
4. Sportda silash usuli qay holatlarda qo'llaniladi?
5. Sportda shikastlanganda, qon tomirlar torayganda, tomir tortishganda (mushak bexos qisqarganda) qo'llanadimi?

6- Bilet.

- 1.Silash usullarining turlarini bilasizmi?
- 2.Ritmik sport massajni trenirovka o'mida o'tkazishganligini bilasizmi?
- 3.Abu Ah ibn Sino tomonidan berilgan massaj klassifikatsiyasini bilasizmi?
- 4.Olimpiya o'yinlarida ilk bor sport massaji qayerda qo'llangan?
- 5.Sport massajini turlarini bilasizmi?

7-Bilet.

1. Tayyorlovchi massaj qanday holatlarda o'tkaziladi?
2. Start oldi turlarini bilasizmi?
3. Tetiklantiruvchi massaj qay vaqtda o'tkaziladi?
4. Qaysi vaqtda qizdiruvchi massaj o'tkaziladi?
5. Safarbarlik massaji davomiyligini bilasizmi?
6. Qayta tiklash massaji qay vaqtda qo'lanadi?

8-Bilet

1. Hamma massaj usullari qaysi yo'nalishda bajariladi?
2. Massaj oluvchining qaysi sohalarini massaj qilish man qilinadi?
3. Massaj oluvchining mushaklari massaj vaqtida qanday holatda bo'lishi kerak?
4. Massaj usullarini qanday kuch bilan bajarish kerak?
- 5.Massaj qanday bosim va tempda bajarilishi kerak?

9- Bilet.

- 1.Umumiy massajda tananing qaysi sohalari massaj qililadi?
- 2.Silash usullarini teriga ta'siri qanday?
- 3.Silashning nuqta massajiga ta'siri?
- 4.Sportda silash qay holatlarda ko'proq qo'llaniladi?
- 5.Silashda kaft holati qanday bo'ladi?

10- Bilet.

- 1.Massajni oluvchining holati qanday bo'ladi?
- 2 Silash usuli mushaklarqa qanday ta'sir ko'rsatadi?
- 3.Udalash usulini tanaga ta'siri qanday?
- 4 Ishdalash usullari bo's'inlarqa qanday ta'sir etadi?
- 5.Qoqish usullarini fiziologik ta'siri qanday?

11-Bilet.

1. Massajning qanday harakat usullarini bilasiz?
2. Massajni kimlar bajarishi lozim?
- 3.Massajni fiziologik asoslari to'g'risidagi ma'lumotlar qaysi davrda boshlangan?
- 4.Massajni har xil kasalliklarni davolash xususiyati haqida ilmiy ishlar qaysi davrlarda paydo bo'ldi?
- 5.Mexanoretseptorlar tananing qaysi bo'laklarida bo'ladi?

12- Bilet.

1. Mexanoretseptorlarning tuzilishi qanday?
2. Organizmga nisbatan massajni ta'siri qanday bo'ladi?
3. Stress holat nima?
4. Mexanik ta'sir etish so'zini qanday tushunasiz?
5. Massajning asab sistemasiga ta'siri qanday?

13- Bilet.

- 1.Massajning teriga fiziologik ta'sirini bilasizmi?
- 2.Massajni yurak-qon tomir sistemasiga ta'siri qanday?
- 3.Massajni limfa sistemasiga ta'siri qanday?
- 4Limfa tugunlari odam tanasida qaysi sohalarda joylashgan?
5. Qayta tiklash massaji qay vaqtda qo'llanadi?

14-Bilet.

1. Massaj xonasini yorug'liklari va dam olish xonalari haqida nimalar bilasiz?
2. Silashda kaftning qaysi sohalari ishtirik etadi?
3. Olimpiya o'yinlarida ilk bor sport massaji qayerda qo'llangan?
4. Massajga tavsiya yoki ma'n etilish holatlarini bilasizmi ?

5. Silash usulining fiziologik ta'sirini bilasizmi?

15-Bilet

1. Tayyorlovchi massaj qanday holatlarda o'tkaziladi?
2. Start oldi turlarini bilasizmi?
3. Tetiklantiruvchi massaj qay vaqtda o'tkaziladi?
4. Qaysi vaqtda qizdiruvchi massaj o'tkaziladi?
5. Safarbarlik massaji davomiyligini bilasizmi?
6. Qayta tiklash massaji qay vaqtda qo'hanadi?

6.0.YAKUNIY ATTESTATSIYA

6.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqnisaqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» asosida o'tkaziladi. Umumiy malaka oshirish kurslarida Yakuniy attestatsiyaga Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar kiritiladi.

Nazoratning ushbu turi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-Test sinovi;

-Amaliy ko'nikmani baxolash bosqichlarida amalga oshiriladi

-Yakuniy suhbat (Imtixon)

Test sinovi – malaka oshirish o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan test banki asosida o'tkaziladi. Test sinovi natijalari quyidagicha baxolanadi: to'plangan to'g'ri javoblar xajmi umumiy test topshirig'ining 60 % va undan ortiqni tashkil etganda “O'tdi”, 59% va undan kam natijaga erishilganda — “O'tmadi” deb baxolanadi. Tinglovchining tayanch bilimlarini aniqlash va yakuniy test sinovini o'tkazish uchun mazkur malaka oshirish kursi dasturi doirasida tuzilgan bir xil test topshiriqlari bankidan foydalaniladi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 50 tadan kam bo'lmagan xajmda test topshiriqlari beriladi. Har bir to'g'ri javob 2 balldan baholanadi.

Yakuniy attestatsiyaning amaliy ko'nikmani baxolash bosqichiga test sinovidan o'tgan tinglovchilar qo'yiladi. Amaliy ko'nikmani baxolashda o'rta tibbiyot va farmasevtika kadrlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirishga qo'yilgan amaldagi Davlat talablari va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Baxolash natijalari “O'tdi” va “O'tmadi” deb belgilanadi.

Yakuniy suxbat shaklida tinglovchilarga har biri 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masaladan iborat bilet beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to‘g‘ri javoblar soni asosida shakllantiriladi. Har bir savolga berilgan to‘g‘ri javoblar maksimal 10 balldan baholanadi. Nazoratning ushbu to‘g‘ri berilgan umumiy to‘g‘ri javoblar soni 7 ta (70%) va undan ortiq bo‘lganda –“ o‘tdi”, 6 ta va undan kam bo‘lgan xollarda –“o‘tmadi “ sifatida baxolanadi.

Tinglovchining bilim va ko‘nikmalari quyidagi mezonlar bo‘yicha baxolanadi:

44. Quymich asab tolasining massajida qaysi usul ko'proq qo'llaniladi?

- E. *labil vibratsiya-asab to'kimasi bo'ylab
- F. ishtalash
- G. ezish
- H. nuktali vibratsiya

45. Sust, faol va sust-faol harakatlar ko'proq qaysi sistemaning kasalliklarida qo'llaniladi?

- E. *tayanch-xarakat apparati kasalliklarida;
- F. asab sistemasi
- G. nafas olish sistemasi
- H. yurak kon-tomir sistemasi

46. Sust, faol va sust-faol harakatlar qanday holatlarda bajarilishini belgilang.

- E. *qoringa, chalkancha (orkaga), o'ng yon tomonga, chap yon tomonga, o'tirgan, tik turgan xolatlarda
- F. o'tirgan, tik turgan, koringa yotgan va chalkancha
- G. qoringa va orkaga (chalkancha) yotgan xolatlarda;
- H. tik turgan, o'tirgan, o'ng va chap yon tomonga yotgan xolatlarda

47. Salomatlikni saqlash haqidagi ta'limot qanday ataladi?

- E. *valeyologiya
- F. nevrologiya
- G. psixologiya
- H. ginekologiya

48. Massaj muolajasi ko'proq qaysi sohada qo'llaniladi?

- E. *tibbiyot amaliyotida
- F. sport-sog'lomlash-tirishda
- G. san'at-xoreografiyada
- H. sirkda

49. Bir kishini ikki kishi massaj qilsa, u qanday massaj deb ataladi?

- E. *qo'sh massaj

- F. dvolovchi massaj
- G. kosmetik massaj
- H. segmentar-reflektor massaj

50. Qo'sh massajning vatani qayer?

- E. *Misr
- F. Hindiston
- G. Rossiya
- H. Gretsiya

6.4. Amaliy ko'nikma

- **1. Umumiy gigienik va nuqtali massaj usullarini bajarish algoritmi:**
- Umumiy gigienik massaj ertalab uyqudan keyin yoki ertalabki gimnastikadan keyin, shuningdek uyquga 1-2 soat qolganda o'tkaziladi;
- Massajni yengil kiyim ustidan ham bajarish mumkin;
- Massaj qabul qiluvchini yoshi, jinsi va holati e'tiborga olinadi;
- Umumiy gigienik massaj bir haftada 2-3 marta bajariladi;
- Mahalliy massaj esa har kuni amalga oshiriladi;
- Gigienik massajni vannada, banyada dush tagida, basseynda, har xil apparatlarda va massajyorlarda bajariladi;
- **Nuqtali massajda** ta'sirotlar tor va chegaralangan sohaga beriladi;
- Nuqtali massaj I , II, III barmoq yostiqlari yoki II, III falangalari yordamida tanlangan nuqtada silash, ishqalash, ezish va tebratish usullari bajariladi;
- Nuqtali massajning tinchlantiruvchi (tormozli) usulida uzluksiz, sekin-asta, yuzaki, aylanma harakatlar 2-4 min. bajariladi, massaj muolajasi 3-4 marta, qo'lni olmasdan takrorlanadi;
- Nuqtali massajning qo'zg'atuvchi usuli qisqa, kuchli va I barmoqni 1-60 sekundgacha bosib olish bilan amalga oshiriladi.

2. Organizmdagi anatomik a'zolari joylashishini aniqlash algoritmi:

- Massajchi organizmdagi limfa tomirlar va tugunlarining anatomiyasi hamda bir-biriga nisbatan topografiyasi, ya'ni joylashishini yaxshi bilishi shart, aks xolda noto'g'ri bajarilgan massaj limfa tugunlarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin;
- Massaj muolajasini boshlash (silash) paytida massajchining qo'l harakatlari doimo limfa oqimi va eng yaqin limfa tugunlari tomon yunalgan bo'lishi lozim;
- Bosh va bo'yin sohasi massajida pastki o'mrov osti limfa tugunlari tomon;
- Qo'l massajida tirsak va qo'litiq osti limfa tugunlari tomon;

- Qo‘krak qafasining orqa (yuqori va o‘rta) sohasi massajida umurtqa pog‘onasidan qovurg‘alararo mushaklar bo‘ylab, qo‘ltiq osti limfa tugunlari tomon;
- Qo‘krak qafasining old sohasi massajida to‘sh suyagidan qo‘ltiq osti limfa tugunlari tomon;
- Bel, dumg‘aza va son mushaklarining massajida chov limfa tugunlari tomon;
- Oyoq kafti, boldir mushaklari va tovonlarni massaj qilayotganda tizza osti limfa tugunlari tomon harakat qilinadi.

3.Massajning umumiy fiziologik asoslari mavzusi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar ro‘yxati:

- Bemorlarda og‘riqni sezish va ularni qabul qilish qobiliyatini aniqlash;
- Haqiqiy va ichki chuqur og‘riqlarni bir biridan ajratish;
- Zaxarin-Ged zonalarini aniqlash;
- Og‘riqli zonalarining hajmi va shaklini aniqlash uchun taktil retseptorlardan foydalanish;
- Teridagi doimiy va doimiy bo‘lmagan burmalarni topish;
- Teri osti asosini ushlab, qattiqlik (geloz)larni aniqlash;
- Yurak qon-tomir sistemasidagi o‘zgarishlar: puls holati, taxikardiya, Bradikardiya aniqlash, qon-tomirlarni paypaslab ko‘rish.

4.Massajning gigienik asoslari mavzusi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar ro‘yxati:

- Massaj qabul qiluvchini massaj muolajasiga tayyorlash;
- Mushaklarni ko‘zdan kechirish, mushaklarning tonusini va miogelozlarni aniqlash;
- Mushaklarni maksimal fiziologik holatga keltirish va batamom bo‘shashtirish;
- Mushaklarni fiziologik holatga keltirish uchun oshiq-boldir, tizza, bel, ko‘krak qafasi va bo‘yin sohalariga yostiqchalar qo‘yish;
- Massaj muolajasini psixoterapiya yordamida o‘tkazish.

Davolovchi massajning umumiy usullari va ularni bajarish qoidalari

5.Davolovchi massajning asosiy harakat yo‘nalishlarini bajarish algoritmi:

- Uzunasiga, mushak tolasi bo‘ylab;
- Ko‘ndalangiga, a‘zolarining anatomik tuzilishiga qarab;
- Aylanasiga, keng sohalarda;
- Spiralsimon, tor va kichkina sohalarda;
- Zigzagsimon, qo‘l-oyoqlar kaftida, bolalar massajida;

- Uzluksiz, massaj qilinayotgan sohadan qo‘l uzilmaydi;
- Uzuq-uzuq, massaj qilinayotgan sohadan qo‘l uziladi;
- To‘g‘ri chiziqli, har tomonga yoki qarama-qarshi tomonga, qizdirish maqsadida;
- Kombinatsiyalashgan, bir nechta harakat yo‘nalishlarini bir sohada bajarilishi.

6. Davolovchi massajning asosiy va yordamchi usullarini bajarish algoritmi:

- Massajchi massaj muolajasini asosiy usullarni bajarishdan boshlashi maqsadga muvofiqdir;
- Asosiy usullar massajlanayotgan sohani keyingi ta’sirlarga tayyorlab beradi va ularning samaradorligini oshiradi;
- Yordamchi usullar esa, gavdaning anatomik tuzilishi;
- Massaj qabul qiluvchining yoshi;
- Gavda mushaklarining jismoniy rivojlanishi;
- Yog‘ qatlamining to‘planish darajasi;
- Kasallikning diagnozi va boshqa sabablarni e’tiborga olgan holda qisqa muddat ichida terapevtik natijaga erishish maqsadida qo‘llanadi;
- Massajning 4 ta usuli ketma-ket bajarilishi shart, sababi har bir bajariladigan usul keyingisini davolovchi ta’sirini kuchaytirishi yoki pasaytirishi mumkin.

7. Silashning asosiy va yordamchi usullarini bajarish algoritmi:

- Davolovchi massaj muolajasi silash usuli bilan boshlanadi;
 - Har bir usuldan keyin ham silash 3-5 marta bajariladi;
 - Silash usuli yordamida massaj qabul qiluvchini muolajaga tayyorlanadi;
 - Silash usulini bajarayotganda massajchining qo‘li terida yuza va ohista harakat qilib, terini yig‘maydi;
 - Silash usulida harakatlari pastdan tepaga, periferiyadan markazga, eng yaqin joylashgan limfa tugunlari tomon yo‘naltiriladi;
- Silash usuli 1 minutda 24-26 marta bajariladi.

8. Ishqalashning asosiy va yordamchi usullarini bajarish algoritmi:

- Ishqalash usulini bajarayotganda massajchining qo‘llari ma’lum kuch ta’sirida to‘qimalarni bosadi;
- Ishqalash usuli harakatlari: to‘g‘ri chiziqli, har tomonga, uzunasiga, ko‘ndalang,

- aylanasimon, kichik aylana yoki sirkulyar, spiralsimon, zigzagsimon, uzluksiz va uzuq-uzuq yo‘nalishlarda bajariladi;
 - Ishqalash usuli beriladigan bosim kuchiga qarab yuzaki va chuqur, massaj qilayotgan sohaga qo‘l bilan perpendikulyar ta’sir qiladi;
 - Bosim kuchi katta bo‘lsa, teri va chuqur joylashgan to‘qimalar kuchli deformatsiyaga uchraydi va massajning natijasi tez bo‘ladi;
 - Ishqalash usullari ikkala qo‘l panjasining kaft yuzasi, asosi, barmoqlar, tirsak va bilak qirralarining sohasi bilan bajariladi;
 - Gips olingandan keyingi shishlarni bartaraf etish, gipertoniya kasalligi, mastit, tuk tolalari qalin va uzun bo‘lganda, ularning yo‘nalishi bo‘ylab, yumshoq to‘qimalarning jarohatlarida va h.k. qo‘l harakatlari to‘g‘ri chiziqli
- bir tomonga, tepadan pastga, “So‘ruvchi” massaj usullari bajariladi.

9. Ezishning asosiy va yordamchi usullarini bajarish algoritmi:

- Massajchi ezish usulini to‘g‘ri bajarishi uchun chuqur bilim va aniq tajriba malakasiga ega bo‘lmog‘i zarurdir;
- Ezish usullari uzunasiga, ko‘ndalangiga, aylanasimon, spiralsimon, uzluksiz va uzuq-uzuq harakatlar yo‘nalishida bajariladi;
- **Ezish usulini bajarishning umumiy qoidasi 3 ta bosqichdan iborat:**
- massaj qilinayotgan mushak to‘qimalarini ikki tomonidan fiksatsiya qilish va suyak asosidan ajratib ko‘tarish;
- mushakni siqish va burash;
- mushakni bosish, tortish, siljitish, ag‘darish va uzluksiz, ritmik ravishda ezish.

10. Uzluksiz vibratsiya usullarini bajarish algoritmi:

- Massajchi vibratsiya usullarini nozik, yumshoq va og‘riqsiz bajarishi kerak;
- Ezish usullari uzunasiga, ko‘ndalangiga, aylanasimon, spiralsimon, uzluksiz, uzuq-uzuq va perpendikulyar (tikka tushgan) harakatlar yo‘nalishida bajariladi;
- Uzluksiz va uzuq-uzuq tebranish usullari ta’sirida massaj qilinayotgan to‘qimalarda har xil tezlik va amplitudada to‘lqinsimon harakatlar vujudga keladi;
- Uzluksiz va uzuq-uzuq tebranishlarni bemorning tashxisini e’tiborga olib, tanlab ta’sir etish;
- Uzluksiz tebranish usullarini ko‘proq nerv sistemasi, ichki sekretsiya bezlari faoliyatini qo‘zg‘atish, og‘riqlarni bartaraf etish va boshqa maqsadlarda bajariladi;

11. Uzuq-uzuq vibratsiya usullarini bajarish algoritmi:

- Massajchi to‘qimalarga ko‘rsatiladigan bosim kuchining texnikasini aniq bilishi lozim, bu esa usullarning mohiyatini va ularning organizmga ta‘sirini belgilaydi;
- Uzuq-uzuq tebranishlar mushaklarning atoniyasi, atrofiyasi, parezlarda va “Antitsellyulit”li massajda ezish usuli bilan birgalikda bajarish;
- Massajchi to‘qimalarga ko‘rsatiladigan bosim kuchining texnikasini aniq bilishi lozim, bu esa usullarning mohiyatini va ularning organizmga ta‘sirini belgilaydi;
- Massajchi vibratsiya usullarini bajarayotganda tebranishning kuchi, tezligi, va amplitudasini hisobga olishi zarur, chunki to‘lqinsimon harakatlar chuqur joylashgan ichki a‘zolar, tomir, nerv tolalariga yetib borib tarqaladi va tebranishlar hosil qiladi.

12. Massaj qabul qiluvchini qoringa yotgan holatida massaj qilish algoritmi:

- **Oyoqlarning** massaji. Oyoq panjasi barmoqlarining yuzasi, kaft yuzasi, yon qirralari, tovon, axill payi, tashqi va ichki to‘piqlar, oshiq-boldir bo‘g‘imlari, boldir va son mushaklarining massaji;
- **Dumba, bel mushaklari va chanoq-son bo‘g‘imlarining massaji.** Muhim nerv ustunlarining nuqtali massaji va ularni bajarishqoidalari. Orqa miya nerv tolalarining segmentar-reflektor massaji. Quymich nervining va chanoq-son bo‘g‘imining nuqtali massaji. Nuqtali massaj usullarini bajarish qoidalari;
- **Ko‘krak qafasi orqa tomoni a‘zolarining massaji.**Tana orqasining yuzaki va chuqur mushaklarini massaj qilish. Qovurg‘alararo mushaklar va nerv tolalarining massaji. Kuraklarning massaji. Segmentar-reflektor massaj usullari va ularni bajarish qoidalari. Umurtqa pog‘onasining segmentar-reflektor massaji;
- **Bo‘yin sohasining orqa yuzasi massaji.** Trapetsiyasimon mushaklarning massaji. Ensa sohasi va bo‘yinning segmentar-reflektor massaji. To‘sh-o‘mrov-so‘rg‘ichsimon mushaklarning massaji;
- **Qo‘llarning orqa yuzasi massaji.** Qo‘l panjasi barmoqlarining yuzasi, kaft yuzasi, bilak-kaft bo‘g‘imi, bilak mushaklari, tirsak bo‘g‘imi, yelka mushaklari va bo‘g‘imlarining massaji;
- **Boshning massaji.** Sochning ustki yuzasi massaji. Boshning sochli qis-mini teri bilan qo‘shib massaj qilish qoidalari. Bosh massajida qo‘lla-niladigan davolovchi massajning asosiy harakat yo‘nalishlari. Bosh massajini o‘zini o‘zi massaj qilish usuli yordamida bajarish. Massajdan keyin bo‘yin segmentida faol, sust va faol-sust harakatlarni bajarish qoidasi.

13. Massaj qabul qiluvchini chalgancha yotgan holatida massaj qilish

algoritmi:

- **Oyoqlarning old yuzasi massaji.** Oyoq panjasi barmoqlarining bo‘g‘imlari , oyoq kaftining ustki yuzasi, yon qirralari, , tashqi va ichki to‘piqlar, boldir mushaklari yon tomonlari, tizza bo‘g‘imlari va son mushaklarining massaji;
- **Qorin sohasining massaji.** Qorinning oldingi devori mushaklari va qorin bo‘shlig‘idagi a‘zolarining massaji. Me‘da, me‘da osti bezi, ingichka va yo‘g‘on ichaklar, jinsiy a‘zolar, siydik pufagi, jigar, o‘t pufagi va boshqa a‘zolarining massaji;
- **Bo‘yin sohasining old yuzasi massaji.** Bo‘yin mushaklari, to‘sh-o‘mrov-so‘rg‘ichsimon mushaklarning massaji;
- **Ko‘krak qafasi old tomoni a‘zolarining massaji.** To‘sh va o‘mrov suyaklari sohasi, qovurg‘alararo mushaklar nerv tolalarining massaji. “Xanjarsimon o‘siq” va “Quyoshsimon chigal”ning massaji. Yurak sohasining massaji. Segmentar-reflektor massaj usullari va ularni bajarish qoidalari. Umurtqa pog‘onasining segmentar-reflektor massaji;
- **Qo‘llarning old yuzasi massaji.** Qo‘l panjasi barmoqlarining bo‘g‘imlari, kaftning ustki yuzasi, bilak-kaft bo‘g‘imi, bilak va tirsak mushaklari, tirsak bo‘g‘imi, yelka mushaklari va bo‘g‘imlarining massaji;
- **Yuzning massaji.** Peshana, qosh va ko‘z atrofi, burun, lunj, og‘iz atrofi va engak sohalarining massaji. Quloq suprasining massaji. Yuzdagi uch shoxli va yuz nervi nuqtalarining massaji. Yuz massajini o‘zini o‘zi massaji usullari yordamida bajarish qoidalarini o‘rganish.

14. Davolovchi jismoniy badantarbiya mashq (faol, sust va faol-sust)

larini bajarish algoritmi:

- Mashqlarni bajarish jarayonida birinchi mashg‘ulotdan boshlab, mushaklarni erkin faol bo‘shashishga o‘rgatish;
- Mushaklarni bevosita faol ravishda qisqarishidan keyin bo‘shashtiruvchi mashqlarni bajarish;
- Jismoniy mashqlarni massajchi hamshira o‘zi qorniga, chalqancha (orqasiga), o‘ng yon tomoniga, chap yon tomoniga, o‘tirgan va tik turgan holatlarda bajarish qoidasini mukammal o‘rganish hamda namoyish etib ko‘rsatish;
- Kasallikning kelib chiqish sabablari va klinik belgilari, yoshi, jinsi va bemorning mashq qilish holatini hisobga olish;
- Alohida guruh bemorlar uchun davolovchi jismoniy badantarbiyaning xususiy usullarini ishlab chiqish va namoyish qilib ko‘rsatish.
- Yotoq rejimi va zaiflashgan bemorlarda mashqlarni o‘tkazishda og‘zaki tushuntirish va namoyish qilib ko‘rsatish;

15. Davolovchi massajning xususiy usullarini bajarish algoritmi:

- A‘zolarining topografik anatomiyasini aniqlash;
- Har bir a‘zoning bajaradigan funksiyasini bilish;
- Massaj muolajasini bajarishda “Hamshiralik jarayoni” ni qo‘llash;

- Usullarni anatomik a'zoning sohasida aniq bajarish;
- Massajchi har bir bajarilgan usulning fiziologik ta'sirini o'zida his etishi;
- Markaziy va periferik nerv sistemasi, sezgi sistemasi a'zolari, tayanch-harakat sistemasi, yurak qon-tomir sistemasi, nafas olish sistemasi, ovqat hazm qilish sistemasi, endokrin sistemasi va moddalar almashinuvining buzilishidan keyin kelib chiqadigan kasalliklar, tanosil (jinsiy) va siydik ajratish sistemasi a'zolarining kasalliklarida massaj metodikasini to'g'ri bajarish;
- Jarrohlik amaliyotida, operatsiyadan oldingi va keyingi davrda va boshqa turli kasalliklarning surunkali kechishida davolovchi massajning xususiy usullarini bajarish qoidalari;
- Surunkali kasalliklarni davolashda massaj va davolovchi jismoniy badantarbiya mashqlarini birgalikda qo'llashni bilish.

16. Bolalar amaliyotida massaj usullarini bajarish algoritmi:

- Ko'krak yoshidagi bolalarda massaj muolajasini o'tkazishdagi gigienik sharoitlar;
- Raxit kasalligida parvarish maqsadi va massaj rejasi;
- Kasallikning yaqqol ko'rinishlari rivojlanishini bartaraf etish;
- Hamroh kasalliklar qo'shilishini oldini olish;
- Massaj muolajasini 3ta kursda o'tkazish;
- Mushaklari bo'shashgan bolalarni umumiy massaj qilish usullari;
- Qomatning nuqsonlari va umurtqa pog'onasi qiyshayganda massaj metodikasi;
- Bolalarning serebral falajida massaj rejasini tuzish va amalga oshirish;
- Chanoq-son bo'g'imi displaziyasi va soning tug'ma chiqishida massaj va davolovchi mashqlarni o'tkazish;
- Tug'ma va orttirilgan mushakli qiyshiq bo'yin kasalligida massaj muolajasi va to'g'rilovchi gimnastika mashqlarini bajarish;
- Jismoniy mashqlarni massajchi hamshira qoringa, chalqancha (orqasiga), o'ng yon tomoniga, chap yon tomoniga, o'tirgan va tik turgan holatlarda bajarish qoidasini mukammal o'rganish hamda namoyish etib ko'satish;
- Alohida guruh bemorlar uchun davolovchi jismoniy badantarbiyaning xususiy usullarini ishlab chiqish (kasallikning kelib chiqish sabablari va klinik belgilari, yoshi, jinsi va bemorning mashq qilish holatini hisobga olgan holda);
- Yotoq rejimi va zaiflashgan bemorlarda mashqlarni o'tkazishda og'zaki tushuntirish va namoyish qilib ko'rsatish;
- Mashqlarni bajarish jarayonida birinchi mashg'ulotdan boshlab, mushaklarni erkin faol bo'shashishga o'rgatish;
- Mushaklarni bevosita faol ravishda qisqarishidan keyin bo'shashtiruvchi mashqlarni bajarish.

17. Butun badanni ho'llab artish algoritmi:

- Butun badanni ho‘llab artish – ancha murakkab va zo‘r muolajadir; bunda bemorning butun badani suv ta’siriga uchraydi;
- Bemor yog‘och panjara ustiga chiqib turadi;
- 28 S temperaturali suv bilan choyshab hullanadi (suv temperaturasi asta-sekin pasaytirilib, 20 S gacha tushiriladi);
- Choyshabni siqib tashlab, qo‘llarini ko‘tarib, turgan bemor badani u bilan tez o‘raladi;
- Muolajani o‘tkazayotgan kishi chap qo‘li bilan choyshabning erkin uchini bemorning o‘ng qo‘ltiq ostidan boshlab badan atrofidan o‘rab chiqadi;
- So‘ngra bemor qo‘llarini tushiradi va choyshab o‘ng hamda chap yelkasi orqali orqasiga yopilib, bo‘yniga bog‘lab qo‘yiladi;
- Badanga yaxshi taqalib turgan choyshab ustidan bemor badani tez va yaxshilab ishqalanadi;
- Meditsina hamshirasi yon tomonda turib, bemor badanini oldingi choyshabni olib, o‘rniga qurug‘ini yopadi va shu choyshab ustidan bemor badani zo‘r berib va tez artiladi;
- Muolajadan keyin bemorni issiq qilib o‘rab, 20-30 minut kushetkaga yotqizib qo‘yiladi;
- Badanni ishqalash natijasida bemor hush yoqadigan issiqlik seza boshlaganidan keyin muolaja ta’sirini kuchaytirish uchun choyshabni olmasdan turib, bemorning ustidan burmuncha sovuqroq (20-24 S temperaturali) suv quyiladi;
- Keyin esa badanni yana ishqalanadi. Suv quyishni 2-3 marta takrorlash mumkin.

18. Pulsni aniqlash va nafas harakatlarini sanash algoritmi:

- Qo‘l yuviladi va quritiladi;
- Soat tayyorlab qo‘yiladi;
- Bemorga muolaja maqsadi haqida tushuncha beriladi;
- Bemor qulay vaziyatda o‘tqiziladi yoki yotqiziladi;
- Bemorning bilak sohasi qo‘lga olinadi;
- Bilak arteriyasi 2-3-4-barmoqlar bilan topiladi va asta-sekin bosiladi;
- Puls aniqlanadi (1 daqiqada);
- Puls tezligi sanaladi;
- Natija baholanadi;
- Qo‘l bemorning ko‘krak qafasiga qo‘yiladi;
- Bir daqiqa ichida nafas harakatlari sanaladi;
- Puls va nafas harakatlari natijalari baholanadi;
- Natijalar bemorni tibbiy xaritasiga qayd qilinadi. Davolash varaqasiga nafas harakati soni, pulsi belgilab qo‘yiladi;
- Qo‘l yuviladi.

19. Arterial bosimni o'lchash harakat algoritmi:

- Qo'l yuviladi va quritiladi;
- Tonometr, fonendoskop tayyorlanadi;
- Bemorga muolaja haqida ma'lumot beriladi;
- Bemor qulay vaziyatda yotqiziladi yoki o'tqaziladi;
- Bemorning yalang'ochlangan qo'lga tirsak bo'g'imidan 2-3 sm yuqoriga manjetka o'raladi, qo'l va manjetka orasiga 1 ta barmoq sig'ishi kerak;
- Tirsak bo'g'imidan yelka arteriyasi topiladi va fonendoskop qo'yiladi;
- Manjetkaga rezinali balon yordamida asta-sekin havo beriladi;
- Havo bosimi ostida tonometrdagi simob shisha naycha ko'tariladi, arteriyadagi pulsatsiya tovushi eshitiladi;
- Tonometrdagi ko'rsatgich raqami esda saqlanadi;
- Vintel ochiladi va asta-sekin havo chiqariladi;
- Fonendoskop tirsak bo'g'imiga qo'yiladi;
- Nokchadagi vintelni yopib, havo yuboriladi, oldingi raqamdan balandroq (20-30 ml simob ustuniga) ko'tariladi;
- Vintel asta-sekin ochiladi va havo chiqariladi. Tonometr strelkasi asta-sekin tushiriladi;
- Paydo bo'lgan tovush diqqat bilan eshitiladi va tovush eshitilgan raqam eslab qolinadi, bu sistolik bosim deb yuritiladi;
- Paydo bo'lgan tovushning tamom bo'lgan payti, tonometrdagi raqam diastolik bosim deb yuritiladi;
- Manjetkadagi havo chiqariladi va yechiladi. Bemor o'z holatiga keltiriladi;
- Arterial bosimni baholab, kerak bo'lsa vrachgacha bo'lgan yordam ko'rsatiladi;
- Olingan ma'lumotlar bemorning tibbiy xaritasiga qayd etiladi;
- Ko'rsatilgan raqamlar nisbat shaklida (120/80) jadval tarzida harorat varaqasiga qayd etiladi;
- Qo'l yuviladi.

20. Qo'l yuvish harakat algoritmi:

- Suv yoqiladi va iliq haroratga keltiriladi, qo'lni yuvayotganda suv kiyimga sachramasligiga ahamiyat beriladi;
- Qo'llar ho'llanadi va sovun surtiladi;
- Aylanma, spiralsimon harakatlar yordamida qo'l kafti, barmoqlar orasi, qo'l yuzasi yaxshilab yuviladi;
- Sovun oqar suvda chayilib idishga solinadi, qo'llar oqar suvda yaxshilab yuviladi;
- Sochiq bilan barmoqlar, kaft, barmoqlar orasi yaxshilab artiladi;
- Kasalxona ichida yuqumli kasallik aniqlangan bo'lsa, tozalikka va sterillikka ahamiyat berilishi kerak.

21. Dezinfeksiyalovchi eritma tayyorlash harakat algoritmi:

- 10% li xlorli ohak tayyorlash: 1 kg xlorli ohak, 10 l suv, emal idish, qo‘lqop, yog‘och kurakcha.
- Qo‘lqop, respirator kiyiladi;
 - 1 kg quruq ohak emal idishga solinadi, suv miqdorining yarmisi solinib aralashtiriladi va suvning qolgan miqdori solinadi;
 - Yog‘och kurak bilan aralashtiriladi;
 - Emal idish qopqoq bilan yopiladi va 24 soatga qorong‘i joyga qo‘yiladi;
 - 24 soatdan keyin tindirilgan ohak eritmasi idishlarga solinadi. Ushbu eritmaning yaroqlilik muddati 7- kun.

Xlorli ohakning ishchi eritmasi

- Ishchi eritma har kuni tayyorlanadi;
- 1% li eritma-1 l 10 % li xlorli ohakka 9 l suv solinadi;
- 3% li eritma-3 l 10 % li xlorli ohakka 7 l suv solinadi.

Xloramin eritmasini tayyorlash

- 1%-990 ml suvga 10 gr xloramin qo‘shiladi.
- 3%-970 ml suvga 30 gr xloramin qo‘shiladi.
- 300 gr xloraminga 9700 ml suv qo‘shiladi.

Eslatma:

- Dezinfeksiyalovchi eritma solingan idishga tayyorlangan vaqti, % i yozib qo‘yiladi;
- Dez.eritma- alohida xonada tayyorlanadi va saqlanadi;
- 10 % li xlorli ohak eritmasi 7-10 kun qorong‘i joyda saqlash va ishlatish mumkin;
- Ishchi eritma har kuni tayyorlanadi;
- Xloramin eritmasi ishlatishdan oldin tayyorlanadi;
- Dez.eritma teriga yoki shilliq pardaga tushsa, darhol oqar suvda yuviladi.

22. Dezinfeksiyalovchi eritma bilan zararlanganda yordam ko‘rsatish algoritmi:

- Qo‘l yaxshilab yuviladi va quritiladi;
- 2 % li osh sodasi va sut tayyorlanadi;

- Zudlik bilan dez.eritma tekkan soha oqar suvda yuvilad;.
- Xonadan toza havoga chiqiladi;
- Og‘iz va burun bo‘shlig‘i suv bilan chayiladi;
- Osh sodasi qo‘shilgan iliq sut ichilad;.
- Dez.eritma ko‘zga tushsa 2% osh sodasi bilan bir necha daqiqa yuviladi.

6.5 .Yakuniy attestatsiya uchun vaziyatli masalalar

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

1 variant

1 – Masala

Poliklinika qabuliga 55 yoshli bemor: bosh og‘rig‘i, tez charchash, holsizlik, havo bilan yoki palag‘da tuxum hidli kekirish, ko‘ngil aynishi, epigastral sohada og‘irlik, og‘izdan bad bo‘y hid kelishi, och qoringa qusish, ba‘zan ich ketishidan bezovta bo‘lib, murojat qildi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo‘ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo‘naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo‘yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 – Masala

Poliklinikaga 35 yoshli bemor: zarda qaynashi, kekirish, epigastral sohada achishish, og‘riq va og‘irlik, qabziyat, ta‘sirchanlik, arterial gipotoniya, bradikardiya, so‘lak oqishi, tez charchash, uyqu buzilishidan bezovta bo‘lib, murojat qildi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo‘ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo‘naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo‘yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 variant

1 – Masala

Pediatr qabuliga 6 oylik bolani onasi tekshirishga olib keldi. Onasining aytishicha bola ko‘p bezovtalanish, yig‘lash, boshini yostiqqa ishqalab, yaxshi uxlamaydi. Bolani ko‘rikdan o‘tkazilganda mushaklar tonusi bo‘shashgan, reflekslar susaygan. Oyoqlarini cho‘zib qaraganda boldir suyaklari yoysimon qiyshayib, oyoqlarning tashqi tomonga to‘liq og‘ib turishi kuzatiladi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo‘ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo‘naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo‘yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 – Masala

Gastroenterolog qabuliga 55 yoshli bemor quyidagi shikoyatlar: to‘sh osti sohasida og‘riq, ishtahasi pasaygan, og‘izda yoqimsiz maza, achchiq suyuqlik bilan kekirish, jig‘ildon qaynashiga murojat qildi. Bemorni surishtirish orqali, uning ovqatlanish rejimi muntazam o‘zgarib turishi, tez-tez asabiy zo‘riqishi ma‘lum bo‘ldi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo‘ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo‘naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo‘yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

3 variant

1 – Masala

Ortoped qabuliga 7 yoshli bolani profilaktik tekshiruvga onasi olib keldi. Onasining aytishicha keyingi 2 yil ichida bola qomatida o‘zgarish kuzatilgan. Bola yechintirib ko‘rikdan o‘tkazilganda, bo‘yin sohasi umurtqasi qiyshaygan, bir yelkasi ko‘tarilgan, boshi yon tomonga og‘ib, suyaklarida shakliy o‘zgarishlar va yuzida assimetriya holati aniqlandi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 – Masala

40 kunlik chaqaloqni onasi ortoped qabuliga olib keldi. Bolada har ikkala oyog'ining to'piq sohasidan ichkariga buralib turgani va boldir mushaklarida atrofiya (oziqlanishning buzilishi) holati aniqlandi. Bolaning oyog'ida bunday shakliy o'zgarishlar tug'ilganidan beri bor.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis ko'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

4 variant**1 – Masala**

Kardiolog qabuliga 60 yoshli bemor: bosh og'rig'i, bosh aylanishi va quloq shang'illashi, qayt qilish, yurak sohasida og'riq, ko'z oldida "qora yaltiroq sharcha"lar paydo bo'lishi, noxush sezgilar, tez charchash va jismoniy holsizlikdan murojat qildi. Shikoyatlar 3 oy oldin paydo bo'lgan. Bemor anamnezida ko'p stresslar bo'lgan.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 – Masala

1oylik chaqaloqni onasi travmatolog-ortoped qabuliga ko'rikka olib keldi. Ko'rik jarayonida: chaqaloqning bo'yin mushaklari o'ng tomonga qiyshayib, qotib qolgan. Yuz sohasida assimetriya mavjud.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

5 variant

1 – Masala

Bolalar dispanseriga kurikdan o'tish uchun 14 yoshli o'smir: bolaligida chap qulog'i tez-tez shamollab, quloqdan yiring oqishi va hozirgi paytda qulog'i yaxshi eshitmasligidan shikoyat qildi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 – Masala

Sanatoriyaga davolanish uchun kelgan 54 yoshli bemorning shikoyatlari: o'ng oyog'ida ko'p yurganida og'riq, kechalari boldir mushaklarida tortishish.

Mushaklarni paypaslab ko'rilganda: miogeloz (qattikliklar)lar, kapillyar qon-tomirlarning bo'rtib, ko'karib qolganligi aniqlandi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

6 variant

1- Masala

Terapevt qabuliga 67 yoshli bemor, tez-tez chanqash natijasida ko'p suv ichib, tez-tez va ko'p siyish, teri qichishi, quvvatsizlik, tez charchash, bosh og'riq, uyqu buzilishi, ko'z xiralashuvidan bezovta bo'lib, murojat qildi. Shikoyatlar 6 oy oldin paydo bo'lgan. Bemor anamnezida surunkali pankreatit.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 – Masala

29 yoshli bemor umumiy amaliyot shifokoriga: bosh aylanishi, muntazam charchoqlik hissi, ishtahani pasayishi, o'tirib turganda ko'z oldi qorong'ilashishiga murojaat qildi. Qon bosimining ko'satkichi 80/60mm.simob ustuniga teng.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

7 variant

1 – Masala

53 yoshli bemor quyidagi shikoyatlar bilan kasalxonaga tushdi. Oyoq-qo'llarda mayda va o'rta bo'g'imlarning zararlanishi, bo'g'imlarning shakli o'zgargan va funksiyasi izdan chiqqan, darmonsizlik, ko'p terlash, og'riq, shish, harakatlar hajmi chegaralangan. Aniqlanishicha bemor 2-3 yildan bo'yon shu xastalik bilan og'rigan.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?

3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 – Masala

Oilaviy poliklinikaga pediater qabuliga 40 kunlik o'g'il bolani onasi profilaktik ko'rikka olib keldi. Bolaning qo'l-oyoq harakatlari to'liq. Son va dumba sohasidagi burmalar soni har xil. Sonni yon tomonga bukanda kerilish qiyin bo'lib, chov sohasidagi mushakning nihoyatda tarangligi aniqlandi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

8 variant

1 – Masala

Endokrinolog huzuriga 40 yoshdan oshgan patsient: to'qima va a'zolarning yog' bosishidan, kam harakat, ortiqcha ovqat yeyish, nafas qisish, hansirash, bosh og'riq, uyquchanlik va qabziyatdan nolib murojat qildi. U o'zida tez-tez ochlik hissi paydo bo'lib, qaltirab, bo'shashib va ovqat iste'mol qilgach bu belgilar yo'qolishini aytdi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 – Masala

O'ng tizza bo'g'imidagi og'riqga shikoyat qilib travmatologiya bo'limiga futbolchi tushdi. Jarohatlanuvchining so'ziga qaraganda futbol o'yini vaqtida uni

tizza bo'g'imiga tepishgan. Joyida xloretil bilan og'riqsizlantirildi va bosib turuvchi bog'lam qo'yildi, natijada og'riq kamaydi, ammo bir necha soatdan so'ng og'riq kuchaydi, shish paydo bo'ldi.

Ko'ruv vaqtida: o'ng tizza bo'g'iminining hajmi kattalashgan, og'riq, faol harakatlar chegaralangan. Rengent qog'ozida suyakda o'zgarishlar yo'q.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

9 variant

1 – Masala

Poliklinika qabuliga 65 yoshli bemor: bosh og'rig'i, tez charchash, holsizlik, havo bilan yoki palag'da tuxum hidli kekirish, ko'ngil aynishi, epigastral sohada og'irlik, og'izdan badbo'y hid kelishi, och qoringa qusish, ba'zan ich ketishidan bezovta bo'lib, murojat qildi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 – Masala

Poliklinika qabuliga 45 yoshli bemor quyidagi shikoyatlar: to'sh osti sohasida og'riq, ishtahasi pasaygan, og'izda yoqimsiz maza, achchiq suyuqlik bilan kekirish, jig'ildon qaynashiga murojat qildi. Bemorni surishtirish orqali, uning ovqatlanish rejimi muntazam o'zgarib turishi, tez-tez asabiy zo'riqishi ma'lum bo'ldi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?

4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

10 variant

1 – Masala

Poliklinika qabuliga 60 yoshli bemor: bosh og'rig'i, bosh aylanishi va quloq shang'illashi, qayt qilish, yurak sohasida og'riq, ko'z oldida "qora yaltiroq sharcha"lar paydo bo'lishi, noxush sezgilar, tez charchash va jismoniy holsizlikdan murojat qildi. Shikoyatlar 3 oy oldin paydo bo'lgan. Bemor anamnezida ko'p stresslar bo'lgan.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering?

2 – Masala

Sanatoriyaga davolanish uchun kelgan 54 yoshli bemorning shikoyatlari: o'ng oyog'ida ko'p yurganida og'riq, kechalari boldir mushaklarida tortishish.

Mushaklarni paypaslab ko'rilganda: miogeloz (qattikliklar)lar, kapillyar qon-tomirlarning bo'rtib, ko'karib qolganligi aniqlandi.

Savollar:

1. Bemorga taxminiy tashxis qo'ying?
2. Kaysi mutaxassisga yo'naltirish zarur?
3. Davo tadbirlarini rejalashtiring?
4. Qanday parvarishlash kerak?
5. Kasallik bo'yicha kerakli maslaxat va tavsiyalarni bering

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA
XODIMLARINI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI
IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI
“MASSAJ HAMSHIRASI” ISHCHI O'QUV DASTURI GA
TAQRIZ.**

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me’yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to’g’risidagi” buyrug’i O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O’rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo’yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o’quv fanining mazmuni, uni o’zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko’nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e’tiborga olingan. “Massaj hamshirasi ” o’quv dasturi ushbu yo’nalishining o’quv rejasida tayyorlangan bo’lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo’ljallangan. Dastur fanlar bloklariga ajratilgan bo’lib: kasbiy rivojlantirish moduli ma’naviy va siyosiy dunyo qarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog’liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to’g’risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy ta’limning uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo’limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o’quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda davolovchi massajning asosiy prinsiplariga asoslangan holda kasalliklarni davolashda reabilitasion muolajalarning zamonaviy nazariy va amaliy ko’nikmalari to’liq yoritilgan.

S.M.Babich.

A.D.T.I. Ijtimoiy gigiena va sog'liqni saqlashni
boshqarish kafedrası t.f.n dotsenti.



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI RESPUBLIKA
O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARINI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI ANDIJON FILIALI.
“MASSAJ HAMSHIRASI” ISHCHI O'QUV DASTURI GA
TAQRIZ.**

Ushbu ishchi o'quv dasturi Mamlakatimizda axoliga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, sog'likni saqlash tizimini islox qilish jarayonida terminal xolatdagi bemorlarga samarali parvarishni tashkil qilish, ularni xayotga kaytarish va sogligini kayta tiklashga aloxida e'tibor qaratilmokda, shunga asoslanib yaratildi.

“Massaj hamshirasi” yo'nalishidagi yo'nalishidagi malaka oshirish sikli bo'yicha kasbiy o'quv modul ishchi o'quv reja asosida Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchilari va tibbiy ta'limni rivojlantirish markazi mutaxassisleri tomonidan tayyorlangan. Ushbu kasbiy modul dasturi bo'yicha **“Massaj hamshirasi”** guruhlarida mehnat faoliyatida uzilish bo'lmagan va uch yildan ortiq fizioterapiya bo'limida massaj xamshirasi lavozimida ishlagan o'rta tibbiyot xodimlari o'qitiladi. Shuning bilan xamshiralarga bo'limdagi bemorlarga samarali parvarishni amalga oshirish, aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilish, bemorlarga to'g'ri uqalash amaliyotini amalga oshirish usullari, bemorlarni xayotiy ko'rsatkichlarini aniqlash, ulardagi xavfli belgilarni aniqlash, massaj nuqtalarini to'g'ri belgilash massajning nojo'ya ta'sirini oldini olish, bo'limlaridagi apparaturalar bilan ishlash bo'yicha mavzular keng yoritilib berilgan.

Ishchi dastur asosida olib boriladigan mashg'ulotlar davomida tinglovchilar malaka oshirish markazi o'quv auditoriyalarida, Respublika davolash profilaktika muassasalarining KTMPning fizioterapiya bo'limlarida o'qitiladi va tibbiyot sohasidagi yangiliklar, tibbiyotdagi zamonaviy tekshiruv usullari, bemorlarga kechiktirib bo'lmaydigan yordam va parvarishni, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumotlar oladilar. Nazariy mashg'ulotlar ma'ruzalar, suxbatlar va boshqa turli shakllarda markaz yoki o'quv maskani o'quv xonalarida, amaliy mashg'ulotlar esa, asosan statsionarning fizioterapiya bo'limlarida olib boriladi.

B.M.Tuxliboyeva



A.D.T.I. Reabilitatsiya va jismoniy tarbiya

kafedrası tibbiyot fanlari nomzodi, dotsenti.



